

**XX ASR IKKINCHI YARMI – XXI ASR BOSHLARIDA SIRDARYO VILOYATI  
AHOLISI TARKIBI**

**Sharipova Adiba**

*29-22 guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: U.Mirzaliyev*

XIX asrning so'nggi o'nyilliklari – XX asrning ilk choragida Rossiya tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligining bir qismi sifatida bilingan ushbu voha XX asrning ikkinchi choragida ma'muriy-hududiy jihatdan asosan ikki qismga bo'linadi. Mirzacho'l vohasining sezilarli bir qismi – markaziy, shimoli-sharqiy va janubiy hududlari O'zbekiston SSR tarkibiga, g'arbiy va shimoli-g'arbiy hududlari RSFSR tarkibidagi Qozog'iston ASSR tarkibiga kiritiladi. 1960- yillarning boshida Sovet hukumati Mirzacho'l vohasini o'zlashtirish maqsadida imkon qadar yaxlitlashtirish, jipslashtirish masalasi ko'tariladi. Mirzacho'l vohasida yagona viloyat tuzish g'oyasi asosan iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqqan edi. Ya'ni Mirzacho'l geografik jihatdan bir butun – yaxlit bo'lsa-da, biroq ma'muriy jihatdan ittifoqchi respublikalar o'rtaida taqsimlangani mahalliy hukumat oldida yangi qo'riq erlarni o'zlashtirish ishlarini birmuncha qiyinlashtirar edi. Qardosh qozoq xalqining O'zbekistonga bir qism erini berishi bo'yicha kelishuvga erishilgach, shunday yagona qo'riq oblast (viloyat) tuziladi. Sirdaryo viloyati butun Mirzacho'lni va Forish dashtining bir qismini o'z ichiga olib, 1960- yillarda uning maydoni 23 ming kvadarat kilometrdan ortiqroq edi. Yangi tashkil etilgan viloyatning erlari janub tomondan shimolga qarab 180 km, sharq tomondan g'arba qarab 210 km ga cho'zilib ketgan edi. uning qishloq xo'jaligi maydonilari 1 millin 930 ming hektarga yaqin bo'lib, o'sha yillarda 300 ming hektari sug'orilgan, lalmikor erlari 260 ming hektar bo'lib, ma'muriy jihatdan 63 kolxozi, 44 ta sovxozi tashkil etilgan. O'sha paytda viloyatda 630 ming kishi yashashi qayd etilgan<sup>13</sup>.

Sovetlar davrida Mirzacho'lni o'zlashtirish siyosati davom ettilgach, vohada rus, ukrain, beloruslar miqdori birmuncha ortadi<sup>14</sup>. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet ittifoqining frontga tutash hududlaridan Qrim, Shimoliy Kavkaz va Ukraina hududlaridan qrim tatarlari, mesxeti turklari, qorachoy-bolqorlar, Uzoq Sharqdagi front chizig'idan esa koreyslarning O'rta Osiyoga, xususan, O'zbekiston hududiga majburiy ko'chirilishi natijasida mamlakatimizning bir qator viloyatlari qatorida Mirzacho'l vohasidagi yangi o'zlashtirilgan joylariga surgun qilingan millatlar joylashtiriladi<sup>15</sup>.

Mirzacho'l vohasining katta bir qismi, xususan, g'arbiy qismi O'zbekiston va Qozog'iston SSRlar orasida taqsimlanadi. 1956 yil 6 avgustda qabul qilingan: «O'zbekiston va Qozog'istonda paxta ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun Mirzacho'lning qo'riq erlarini sug'orish to'g'risida»gi qaror qabul qilinadi. Mazkur qarorga ko'ra, 1956-1962 yillarda jami 300 ming hektar erni sug'orish va o'zlashtirish ko'zda tutilgan edi. Shundan 200 ming

<sup>13</sup> Абдунабиев А. Ф. Мирзачўлнинг бугуни, эртаси. – Тошкент, 1964 . – Б. 14.

<sup>14</sup> Базарбаев А.М. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўлда аграр муносабатлардаги ўзгаришлар. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б. 108.

<sup>15</sup> Эрбўтаева Ў., Сангирова Д. Алибеков У., Ўрмонов Ҳ. Қатағон қурбонлари Сирдарё вилояти мисолида. – Б.114- 127.

gektar er O'zbekiston SSR chekiga tushadi. 1956 yilda 205 ming gektar yangi er o'zlashtiriladi. Ekin maydonlari 1917 yildan oldingi ko'rsatkichga qiyosan 6 marta ortadi. Shunday qilib, ilgari o'zlashtirilgan yerlarni hisobga olganda, sug'oriladigan maydonlarning umumiy hududini 500 ming gektarga etkazish mo'ljallanadi.

Keyinroq esa Mirzacho'lda 130 ming gektar, yil oxirigacha 380 ming gektar qo'riq erlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. Shundan 266 ming gektari esa O'zbekistonga tegishli edi. 1958 yildagi qarorga binoan O'zbekistonda Janubiy Mirzacho'l anhorini qurish rejalashtiriladi. 1964 yil oxirida mazkur anhorning 93 kilometrlik birinchi navbati foydalanishga topshirildi. Hammasi bo'lib 20 mln. kub metr qazish ishlari bajarildi, o'nlab gidrotexnik inshoatlar barpo qilindi. Janubiy Mirzacho'l anhorining ishga tushirilishi O'rta Osiyo qo'riq o'zlashtiruvchilarining katta g'alabasiga aylandi<sup>16</sup>.

Mirzacho'l vohasi mahalliy aholisining sezilarli bir qismini tojiklar tashkil etadi. Ma'lumki, Mirzacho'l vohasining bir qismi, xususan, sharqiy bo'lagi O'zbekiston Sirdaryo viloyatiga qarashli Xovos tumani va Yangier shahrini hamda Tojikiston Respublikasining Zafarobod tumani (Sug'd viloyati)ni o'z ichiga oladi. Sharqiy Mirzacho'l aholisi o'tmishda tarixiy Xo'jand va O'ratega viloyatlari aholisi bilan etnomadaniy aloqalarda bo'lib kelgan. Mirzacho'l vohasining qadimgi aholisidan biri hisoblanadigan tojik tilli aholi XX – XXI asrlarga kelib vohaning deyarli barcha tumanlarida o'z qishloq va mahallalariga ega bo'ldilar. Qadimda asosan vohaning Xovos tumanida ko'pchilikni tashkil tojiklar soni mamlakatimizning Qashqadaryo (Kasbi), Navoiy (Nurota), Jizzax viloyatining ayrim qishloqlaridan ko'chgan tojik tilli aholi Tojikistonning Istaravshan (O'ratega) tumanidan kelgan aholi hisobiga son jihatdan birmuncha oshgan. Shu bilan birga, vohaning o'zbek tilli aholisi orasida ham o'z kelib chiqishini o'rategalik o'zbek aholi bilan bog'lovchi kishilar sezilarli bir qismni tashkil qiladi<sup>17</sup>.

1950- yillar O'zbekiston K(b)P Markaziy Komiteti va O'zbekiston Ministrлari Soveti 1949 yil 15 aprelda "Mirzacho'lni o'zlashtirishni davom ettirish chorralari to'g'risida", - degan maxsus qaror qabul qildi. O'sha yili O'zbekiston yoshlar Ittifoqining XII s'ezdi komsomol va yoshlarni Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish ishlarida aktiv ishtirok etishga chaqiradi. Andijon yoshlarining tashabbusi ma'qullandi va bu chaqiriq baland ruh bilan kutib olindi. Andijonlik yoshlar tashabbusiga Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona yoshlari ham qo'shildilar.

1950-yillarda faol olib borilgan "ko'chirish siyosati" natijasida Mirzacho'l vohasida yangi-yangi aholi maskanlari tashqil topa boshlaydi. 1957-yilda Mirzacho'lda 12 mingdan ortiq turli viloyatlardan ko'chma xo'jaliklar kelib o'rnashgach, bunday jarayonlar yanada jadallahib bordi. Bu holat Mirzacho'lni o'zlashtirishda mamlakatimizning turli aholisi zinch eski zonalaridan majburiy ravishda ko'chirma qilinishi bilan bog'liq edi. Xo'jaliklarni oilaviy ravishda cho'l zonalariga ko'chirish ayniqsa Mirzacho'l vohasida demografik jarayonlarning kuchayishiga olib keldi. Masalan, 2-Boyovut savxoziiga ko'chib kelganlar 1950-yili 150 xo'jalik, 1951-yili 110 xo'jalik, 1952-yili 133 xo'jalikdan iborat bo'ldi<sup>18</sup>.

<sup>16</sup> Покорение Голодной степи. -Т.: Ўзбекистон, 1980.

<sup>17</sup> Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи ..., б. 15-16.

<sup>18</sup> Болтаев А. Ўзбекистоннинг XX аср бошидан ҳозирга қадар суръатда дехқончилиги маданияти тарихи. – Б. 22-23.

1960-yillarga kelib Mirzacho'l vohasining rivojlangan iqtisodiy markazlardan biriga aylantirish rejasi yanada faollahib<sup>19</sup>, voha aholisining demografik jihatdan o'sishini ta'minlovchi bir qator loyihalar amalga oshiriladi. Ayniqsa, 1963-yili fevral oyida Sirdaryo viloyati tashkil etilishi bu masalada katta o'zgarishlarni boshlab beradi. 1963-yil 24-yanvarida Qozog'iston SSR Oliy Soveti Prezidiumining "Umum davlat manfaatlarini nazarda tutib, Janubi Qozog'iston hududining bir qismini O'zbekiston SSRga o'tkazish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilinadi. 1963-yil 26-yanvarida O'zbekiston SSR Oliy Soveti prezidumi o'sha hududni O'zbekiston SSRga qo'shdi. Shu tariqa 1963 yil 16 fevralda Mirzacho'lning qo'riq erlarini o'zlashtirish asosida Sirdaryo viloyatiga asos solinadi<sup>20</sup>. Sirdaryo viloyati tashkil qilingach, uning markazi sifatida Yangier shahri belgilanadi<sup>21</sup>, biroq shu yilning o'zidayoq Guliston shahri viloyatning ma'muriy markaziga aylantiriladi. Mirzacho'l erlarini o'zlashtirish tufayli 1957-yili Yangiyer shahri barpo qilingan bo'lib, shaharda lotoklar ishlab chiqaradigan zavod quriladi va bu erda yangi ish joylari tashkil etilishi natijasida respublika va ittifoqdosh respublikadan ko'plab mutaxassis ishchilar jalg qilinadi. Yangier shahri aholisi dastlab 25 ming kishiga, keyinchalik 50-60 ming kishiga etadi<sup>22</sup>.

1963-yilda Guliston shahri Sirdaryo viloyati markaziga aylantirilishidan oldin vohadagi birmuncha yirik aholi maskani bo'lib, uning yosh bo'lsa-da, o'ziga xos tarixi bor. Tadqiqotchilar yozishicha, Gulistonning o'rni 1895-yilgacha qamishzor va yantoqzor bo'lib, 1895-yili Toshkent-Krasnovodsk temir yo'li qurila boshlanib, temir yo'l stantsiyasi vujudga kelgach, bu er dastlab "Achchiq Quduk" deb nomlanadi. Bu erda 40 oiladan iborat aholi yashagan. Keyinroq bu yer Griboedovka deb ataladi va temir yo'l xo'jaligi asta-sekin kengayib, stantsiya yonida kichik aholi maskani - posyolka paydo bo'ldi. Ushbu aholi maskani Duxovoskaya nomi bilan yuritilgan bo'lsa ham, uni Mirzacho'l deb atashardi. Shu tariqa 1905-yili stantsiyaga ham rasmiy ravishda Mirzacho'l nomi beriladi<sup>23</sup>.

Mirzacho'l posyolkasida 1914-yilda mingdan ziyod aholi yashagan bo'lib, Mirzacho'l 1917-yilgacha Samarqand viloyati Xo'jand uezdiga qarar edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng u Turkiston Avtonom Respublikasining Sirdaryo viloyatidagi Golodnostebskaya uezdiga o'tadi. 1926-yili Mirzacho'l posyolkasida aholi soni uch mingdan ortgandan so'ng, Mirzacho'l tumani markaziga aylantirilib, Toshkent viloyati hududiga kiritiladi<sup>24</sup>. 1952-yilda Mirzacho'l shahar maqomini olgan bo'lsa, 1959-yilga kelib "Guliston" nomi beriladi. 1959-yili Guliston shahrida 8 ming kishi istiqomat qilgan bo'lsa, 1963-yildan Sirdaryo viloyati markaziga aylanadi<sup>25</sup>.

1970-yillarga kelib Mirzacho'lni o'zlashtirish birmuncha keng ko'lam kasb etib, vohada aholi maskanlarining salmog'i yanada ortadi. Xususan, Sirdaryo viloyatidagi qishloqlarga 1972-yil viloyatlararo migratsiya natijasida Andijon viloyatidan 258 kishi, Buxoro viloyatidan 82 kishi, Qashqadaryo viloyatidan 81 kishi, Namangan viloyatidan 65

<sup>19</sup> Зияев Ф. С. Ўзбекистоннинг қўриқ ва бўз ерларида ерларида қишлоқ хўялиги кадрларининг шаклланиши: тажриба, муаммолар (Мирзачўл минтақаси мисолида 1965-1970 йиллар). – Б 44-46.

<sup>20</sup> Қизил Ўзбекистон, 1963 йил 31 январь.

<sup>21</sup> Ўз МА, 1619-фонд, 11-рўйхат, 2379-иш, 44-вараг.

<sup>22</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 53.

<sup>23</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 54.

<sup>24</sup> Гойибназаров Э. История развитие города Гулистана (60-70-годы). Авторефер. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1989. – 19 с.

<sup>25</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 54.

kishi, Samarqand viloyatidan 885 kishi, Surxondaryo viloyatidan 18 kishi, Farg'ona viloyatidan 280 kishi, Xorazm viloyatidan 37 kishi, Toshkent viloyatidan 810 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 25 kishi, Toshkent shahridan 400 kishi ko'chirib keltirilgan edi<sup>26</sup>. Ko'chirib keltirilganlar orasida Samarqand viloyatidan kelgan bo'lib, ular asosan qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun ko'chirilgan aholi edi<sup>27</sup>.

Mirzacho'l vohasiga aholini ko'chirish siyosatining ommaviy tus olishi, bu jarayonlarning ixtiyoriy-majburiylik tamoyiliga asoslanganligi, mazkur harakatga partiya va sovet hukumatining alohida ahamiyat bergenligi bilan bog'liq edi. Bu hududga O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan aholini ko'chirish harakatida bir qator omillarga e'tibor qaratilan. Xususan, aholi zich yashaydigan Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqdaryo, Surxondaryo viloyatlarining tog' oldi hududlarida yashaydigan aholisini ko'chirishga e'tibor kuchaytirilgan<sup>28</sup>.

1970- yillarda Sirdaryo viloyati qishloqlariga ittifoqdosh respublikalardan ham aholi ko'chib kelgan bo'lib, sovet davlatining "internatsionalizm" (baynalmilalchilik) g'oyasi tashviqotining natijasi edi. Jumladan, Qирг'изистондан 170 kishi, Tojikistondan 254 kishi, Turkmanistondan 70 kishi, Qozog'istondan 1051 kishi, Belorusiyadan 14 kishi, Moldovadan 7 kishi, Armanistondan 1 kishi, Ozarbayjondan 36 kishi, Gruziyadan 13 kishi, Ukrainadan 149 kishi, Rossiyadan 1847 kishi, Estoniyadan 4 kishi, Litvadan 2 kishi, Latviyadan 2 kishi Sirdaryo viloyatiga kelib joylashgan edi<sup>29</sup>.

1980-yillarga kelib bu harakat birmuncha susaya boshladi. Ham respublikaning ichki viloyatlaridan, hamda Sovet ittifoqining turli hududlaridan Mirzacho'l vohasidagi yirik aholi maskanlariga, shahar va Yangier, Shirin kabi sanoat markazlariga aholining ko'chib kelish jarayoni sekinlashdi va hatto ba masalada turg'unlik yoki orqaga ketish boshlandi. Sababi, 1980-yillarning boshlaridagi butunittifoqda kuzatila boshlagan iqtisodiy tanazzul va 80-90 yillar orasida yuz bergen Sovet davlatini "qayta qurish", "oshkoraliq" harakatlari millatlararo yig'ilib qolgan turli kelishmovchilik va adovatlarni kuchaytirib yubordi. Natijada ittifoq hududi bo'ylab u yoki bu hududga ko'chish jarayoni deyarli to'xtab qoldi.

1990-yillar boshlarida Sovet ittifoqining parchalanishi natijasida viloyatda yashovchi rus tilli aholining bir qismi o'zlarining tarixiy vatanlariga ko'chib ketishlari natijasida Sirdaryo viloyat aholisi sonida birmuncha pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi o'nyilliklarda aholining son jihatdan yana ortishi ko'zga tashlanadi. U. Mirzaliyevning aniqlashicha, 1998 yili Sirdaryo viloyatidan Rossiya Federatsiyasiga ketganlar 1336 kishini, kelganlar 51 kishini tashkil qilgan<sup>30</sup>. RFdan kelganlar va ketganlar orasida Sirdaryo viloyatida shahar aholisining ulushi ko'p bo'lib, shaharlardan Rossiyaga ketganlar orasida 595 tasi – rus, 63 tasi – ukrain, 39 tasi – o'zbek, 196 tasi – tatar, 62 tasi – koreys, 29 tasi –

<sup>26</sup> Ўз МА, 1619-фонд,11-рўйхат, 3279-иш, 32-варақ.

<sup>27</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 63.

<sup>28</sup> Хушвақтов Ҳ.О. Мирзачўлни ўзлаштириш учун аҳоли кўчирилиши ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи (1946-1970 йй). Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – Б. 56.

<sup>29</sup> Ўз МА, 1619-фонд,11-рўйхат, 3279-иш, 33-варақ.

<sup>30</sup> СВ МА, 95-фонд,1-рўйхат, 314-иш,117-варақ.

boshqird, 13 tasi – arman, 12 tasi – tojik, 8 tasi - ozarbayjon, 4 tasi – nemis va boshqa millat vakillarini tashkil qilgan<sup>31</sup>.

XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'l vohasida aholi sonining ortishi vohadagi shaharlashuv – urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq kechgan. Xususan, Sirdaryo viloyati aholisining 1956-2022 yillar oralig'idagi demografik holati bo'yicha maxsus izlanishlar olib borgan U. Mirzalievning yozishicha, viloyatda 2009 yilgacha 5 ta shahar (ularning 3 tasi viloyatga bo'ysunuvchi maqomiga ega) va shuncha shaharcha mavjud bo'lib, ularda jami aholining 31,1% istiqomat qilgan. 2010 yilga kelib, mamlakatida yuz bergen urbanistik o'zgarishlar tufayli shaharchalar soni 25 ta, urbanizatsiya darajasi esa 43,2% etgan<sup>32</sup>. Shu jihatdan voha mamlakatimizning bir qator hududlariga nisbatan anchagina farqli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bo'lsa-da, viloyat markazi Guliston shahri turg'unlari butun viloyat aholisining 10% ga yaqinini tashkil etib, bu jihatdan respublikadagi boshqa viloyatlardan ancha past turadi<sup>33</sup>. Bizningcha, buning o'ziga xos sabablari bo'lib, mustaqillikning dastlabki o'nyilliklarida Sirdaryo viloyatidaning bir qator shaharlarida bo'lgani kabi Guliston shahridan ham ko'plab rus tilli aholining o'z tarixiy vatanlariga ko'chib ketishi, viloyatdagi shaharlarning tabiiy iqlimi va hokazolar shaharlarning demografik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Shu o'rinda U.Mirzaliyev e'tibor qaratgan quyidagi jihat ham Sirdaryo viloyati aholisining keyingi o'nyilliklardagi holati bo'yicha tasavvurimizni kengaytiradi. Tadqiqotchining keltirib o'tishicha, 2010-yilda viloyatning 72,2 ming qishloq aholisi shahar aholisi ro'yxatiga kirgan bo'lib, bu holat Oqoltin tumanida 25,3 ming kishi, Sirdaryo va Sayxunobod tumanlarida ko'pchilikni tashkil etsa-da, ayni vaqtida Xovos, Sardoba tumanlarida birorta qishloq aholi punkti shahar maqomiga sazovor bo'lмаган. Tadqiqotchining yozishicha: "Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust rivojlanganligi uning urbanistik tarkibida ham o'z aksini topadi. Viloyatda birorta katta, ya'ni "yuzminglik" shahar yo'q va bu borada u respublika geosiyosiy tizimida yagona hisoblanadi. Hatto viloyat markazi Guliston shahri ham bu darajaga etisha olmagan. Guliston shahrida 86,5 ming, Yangierda 39,9 ming, Xovos shaharchasida 27,7 ming aholi istiqomat qiladi. Qolgan shahar joylarning har birida 20 mingdan kam aholi yashaydi<sup>34</sup>. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, viloyatda shahar hosil qiluvchi omillar ta'sirining kuchsizligi bois katta shaharlar bo'g'ini shakllanmagan"<sup>35</sup>.

<sup>31</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари (Сирдарё ва Жиззах вилоятлари мисолида, 1956-2020 йй.). – Б. 94.

<sup>32</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари (Сирдарё ва Жиззах вилоятлари мисолида, 1956-2020 йй.). – Б. 112.

<sup>33</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 112.

<sup>34</sup> Сирдарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлари. // <http://sirstat.uz/uz/rasmiy.statistik>.

<sup>35</sup> Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 112-113.